



DOIRA CHOLG'USIDA IJROCHILIK MAHORARTINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI

Turdiyev Abdulatif O'ktam o'g'li
Guliston Davlat Universiteti

“Xalq cholg'u ijrochiligi” ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Email:turdiyevabdulatif584@gmail.com

Tel:+99891-023-05-06

Ilmiy rahbar: Xusnora Shukurjonova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14559619>

ARTICLE INFO

Received: 19th December 2024
Accepted: 20th December 2024
Published: 26th December 2024

KEYWORDS

Doira, ijro, mahorat, tarix, cholg'u, mashq, mohiyat, ma'lumot, asr, qadim.

ABSTRACT

Cholg'u asboblarning paydo bo'lishi uzoq tarix o'tmishga borib taqaladi. Musiqachilik san'atida dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Shu jumladan doira qadimiy musiqa cholg'ularidan hisoblanadi. Ushbu maqolada doira cholg'usida ijrochilik mahoratini oshirishda qo'llaniladigan mashqlarning mohiyati haqida ma'lumot berilgan.

Cholg'u asboblarning paydo bo'lishi tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Musiqachilik san'atida dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan. Bular nog'ora, childirma va doiralardir. Qadim zamonlardan to hozirgi davrimizgacha bizga yetib kelgan doira cholg'usi asbobi o'zgarmagan holda saqlanib kelmoqda. Doira qadimiy musiqa cholg'ularidan hisoblanadi. Markaziy Osiyo (Niso shahri, eramizdan avvalgi 2-asr) da topilgan terrakota yodgorliklarida doirachi ayollar tasvirlangan. Doira va unga yaqin urma musiqa cholg'ulari tojik, arman, ozar, uyg'urlarda dap, dapp, daff, def deb nomlanadi. XX asrda o'zbek doira ijrochilik an'alarini Usta Olim Komilov, T. Inog'omov, D. Sottixo'jayev, Rahim Isoxo'jayev, F. Azimov, Qahramon Dadayev, O. Kamolxo'jayev, aka-uka Islomovlar, M. Oripov, R. Otaboyev, T. Sayfiddinov, R. Samadov va boshqalar mukammallashtirgan.

“Ayrim qadimiy tasvirlardagiga nisbatan doyraning hozirgi tuzilishida ba'zi o'zgarishlar mavjud. Masalan, doyra gardishida teshiklar o'yilmaydi, hozir esa ulaming o'mini gardishning ichkitomonidan osiidadigan ma'dan halqachalar egallagan. Gardish ustiga tortiladigan teri sathi(membrana) ham bir muncha kengaygan. Yana shuni aytib o'tish kerakki, bular asosan XV-XVI asrlarga oid kitob bezaklarida, Sharq miniatyuralarida tasvirlangan. Ammo Markaziy Osiyoning undan oldingi antik yodgorliklaridan hisoblangan Niso qal'asining peshtoqlarida tasvirlangandoyralar bu cholg'uning ilk tuzilishi hozirgi o'zbek doyralariga yaqin ekanligini ko'rsatib turibdi”¹.

Doiraning asosiy qismi (gardishi) tok zangi, so'nggi yillarda zarang, akatsiya, lo'lilarda tol daraxtlaridan ishlanadi. Gardishning tashqi tomoniga buzoq, toy yoki echking oshlangan terisi qoplanadi. Ichki tomoniga esa tamburinnikiga o'xshash ma'dandan ishlangan halqachalar osiladi. Doiraning halqasiz turlari ham mavjud. Gardish diametri 400—510 mm ni tashkil etadi. Doirada tovush ikki qo'l

¹Ikromov I.Lutfullayev A., Doyra, (o'quv qo'llanma), T.:2012,4-bet

barmoqlari yordamida hosil qilinadi. Undan yakka ijroda hamda turli xil milliy cholg'us ansambllarida jo'rnavoz cholg'u sifatida foydalaniladi.

Ijro mahoratini oshirishda asosan mashqlardan va etyudlardan foydalaniladi. Mashqlar doira cholg'usida chap va o'ng qo'llarda bajariladi. Mashqlar 2 turga bo'linadi: 1-sekin tempda ijro etish. 2-tez tempda ijro etish. Birinchida aytib o'tilgan tempda ijro etish asosan doirachini "pastanofkasini" ya'ni doirani to'g'ri turib chalishga yordam beradi. Ikkinchi aytib o'tilgan tempda ijro qilish esa ijrochining mahoratini oshirishga yordam va asarni tez tempda ijro qilishga yordam beradi.

Mashqlar bittalik, ikkitalik, uchtalik, mashqlar bor va ijro mahoratiga qarab tanlanadi va ijro qilinadi. bittalik mashq deganda shunish mumkinki o'ng qo'lda bitta zarba chap qo'lda bitta zarba urish lozim. ikkitalik mashq deganda hudi bittalik mashqqa o'xshash faqatgina o'ng qo'lda ikkita zarba chap qo'lda esa ikkita zarba uriladi. uchtalik mashq esa bittalik va ikkitalik mashqlarda sal farqlanadi. o'ng qo'lda bitta zarba chap qo'lda uch zarba uriladi. Aytib o'tilgan mashqlar ijrochining mahorati va uslubiga qarab tanlanadi. Mashqlar asosan ijrochining mahoratiga qarab tez, sekin va o'rtacha tempda ijro qilinadi. Ijro qilishdan maqsad esa avvalida aytilganidek ijrochining mahoratini oshirishga yordam beradi. Ijrochi asosan mashq va etyudlardan eng kamida 3-4 soat shug'ulanishi lozim bo'ladi.

Etyud (frans. — aynan mashq, o'rganish) — 1) tasviriy san'atda borliq (natura)dan uni o'rganish maqsadida yaratilgan asar. Ijodkor badiiy asar (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika) yaratish jarayonida Etyuddan yordamchi manba sifatida foydalanadi. Tugal asar Etyud majmuasi sifatida o'zini namoyon qiladi. Realistik tasviriy san'at asarlarini yaratish Etyuddan kartinaga o'tish jarayonida amalga oshadi. 19-asr o'rtalaridan Etyudga munosabat o'zgardi, Etyudni badiiy qiymatga ega bo'lgan asar darajasiga ko'tarish, ijodkorning g'oyaviy estetik qarashlarini ifodalashga intilish kuchaydi. Yirik ijodkorlarning Etyudlarni ko'pincha badiiy qiymatga va mustaqil ahamiyatga ega; musiqada — cholg'u ijrochiligining muayyan texnik usulini qo'llashga asoslangan va sozandaning malakasini oshirishga mo'ljallangan pyesa. 19-asrda musiqqa cholg'o'lari takomillashuvi hamda virtuoz ijrochiligining yuksalishi natijasida rivoj topdi (fortepiano uchun I.Kramer, M.Klementi, K.Cherni, skripka uchun R.Kreyser, P.Rode, violonchel uchun D.Popper E.lari va boshqalar).

Musiqiy romantizm vakillari (N.Paganini, F.List, F.Shopen, A.Skryabin, S.Raxmaninov va boshqalar) ijodida Etyud yuksak badiiy konsert asari darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston kompozitorlaridan G.Mushel, B.Giyenko, Sayfi Jalil (fortepiano uchun), T.Qurbonov (organ uchun) va boshqalar Etyud yaratgan; teatr pedagogikasida aktyorlik mahoratini rivojlantirish va mukammallashtirishga xizmat qiladigan mashq. O'qituvchi oldindan ishlab chiqqan yoki badika yo'sinida yaratgan turli sahna harakatlaridan tashkil topadi.

"Ijrochi asosan mustaqil yakka shaklda ijro qilishi lozim yakka shaklda ijro qilish Bu-yakka mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam berad. Xususan, amaliy (yakka) mashg'ulotlarda har bir mavzu yuzasidan cholg'ularni chalib ko'rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinnglo'vchiga ta'sirchanlik xususiyatlarini takroriy tajribalar (repiteitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinb ko'rish yaxshi natija beradi. Amaliy (yakka) mashg'ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko'rish, tajriba (repiteitsiya)lar vositasida o'z ijodiy (yoki ijro) yo'nalishini aniqlash kabi zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib saqlash sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yiladi"²

Xulosa

² Nazarov O, Qashqar rubobi darslik A.T.:2018,11-bet

Xulosa o'rnida aytish joizki, ijrochilik mahoratini oshirishda faqatgina asarni ijrosi bilan chejlanib qolmasdan, balki ko'proq mashqlar, etyudlar, va yakka tartibda 3-4soat o'z ustida ishlash talab qilinadi. Bu sanab o'tilgan amalarni barchasini ketma-ketlik bilan bajarish ijro mahoratini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Rasultoev "O'zbek dutor ijrochiligi" T., 1997
2. Shavkat Rahimov "Dutor" (Musiq va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma) T., 2004.
3. G.Muhammedova "Dutor" (Musiq va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanma).
4. Dilshod, K. (2023, April). O 'ZBEK KINOFILMLARIDA MILLIY MUSIQALARDAN FOYDALANISH HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 4-6).
5. Karimov, D. (2023, April). Muvaffaqiyat Yo 'Lim: Unda Topganlarim Va Yo 'Qotganlarim. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 6-8).
6. Djurayev, M., Husenov, J., & Qurbonova, C. (2024). GEOGRAFIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY O'YIN TEXNOLOGIYALAR. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(5), 67-70.
7. Djurayev, M., Qurbonova, C., & Husenov, J. (2024). GEOGRAFIYA FANINING MAKTABLARDA O'TILISH SIFATI. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(5), 71-73.
8. Наримова, Г. А., Сиддикова, Н., & Саматова, Г. (2015). Различные подходы в преподавании иностранного языка студентам в неязыковых вузах. Научный альманах, (11-2), 292-296.
9. Shaimova, G. A., Shavkieva, D., & Abdukadyrova, N. (2014). The Importance of WebQuest Technologies in Formation of the Professional Speech in Future Specialists. In Young Scientist USA (pp. 160-162).
10. Bahadirov, N., Karimov, D., & Shukurjonova, X. (2024). KOMPOZITOR REFAT IBADLAYEV. Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(6), 72-79.
11. qizi Shukurjonova, X. F. (2023). DUTOR IJROCHILIGINING SHAKLLANISHI. Educational Research in Universal Sciences, 2(11 SPECIAL), 237-240.
12. qizi Shukurjonova, X. F., & Shahnoza, A. (2023, January). BOSHLANG 'ICH MUSIQIY TA'LIM TIZIMIDA BOLALARNING MUSIQIY RITM QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 257-262).